O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 30.428

Gayrat B.RAXIMOV
PhD, dotsent v.b., Urganch davlat universiteti, Xorazm, O‘zbekiston
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com, ORCID: 0009-0000-2242-2608

Dots., Q.Olloyorov taqrizi asosida

INTELLEKTUALIZM FENOMENINING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY TARAQQIYOT GENEZISI

Annotatsiya

Mazkur mavzuda intellektualizm fenomenining falsafiy shakllanish bosqichlari, uning inson tafakkuri, bilish jarayoni, axloqiy tanlov va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi. Intellektualizmning antik davrdan zamonaviy falsafiy qarashlargacha bo‘lgan konseptual rivoji yoritilib, intellektning individual qobiliyatdan ijtimoiy va texnologik omilga aylanish jarayoni ochib beriladi. Shuningdek, ratsionallik, iroda, refleksiya, bilim va intellektual faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar falsafiy nuqtai nazardan umumlashtiriladi. Mavzu doirasida intellektualizmning zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot va sun’iy intellekt sharoitidagi yangi mazmuni ham nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: intellektualizm, intellekt, tafakkur, ratsionallik, bilish, gnoseologiya, refleksiya, iroda, axloqiy tanlov, intellektual faoliyat, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy tafakkur, texnologik intellekt, sun’iy intellekt, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

СТАНОВЛЕНИЕ ФЕНОМЕНА ИНТЕЛЛЕКТУАЛИЗМА И ГЕНЕЗИС ЕГО ФИЛОСОФСКОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются этапы философского формирования феномена интеллектуализма, его аспекты, связанные с человеческим мышлением, процессом познания, моральным выбором и социальным прогрессом. Освещается концептуальное развитие интеллектуализма от античности до современных философских взглядов, раскрывается процесс трансформации интеллекта из индивидуальной способности в социальный и технологический фактор. Также с философской точки зрения обобщаются взаимосвязи между рациональностью, волей, рефлексией, знанием и интеллектуальной деятельностью. В рамках темы теоретически обосновывается новое содержание интеллектуализма в условиях современного научно-технического прогресса и искусственного интеллекта.

Ключевые слова: интеллектуализм, интеллект, мышление, рациональность, познание, гносеология, рефлексия, воля, моральный выбор, интеллектуальная деятельность, социальный прогресс, научное мышление, технологический интеллект, искусственный интеллект, социально-философский анализ.

THE FORMATION OF THE INTELLECTUALISM PHENOMENON AND THE GENESIS OF ITS PHILOSOPHICAL DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the stages of the philosophical formation of the intellectualism phenomenon, as well as its aspects related to human thought, the cognitive process, moral choice, and social progress. It highlights the conceptual evolution of intellectualism from antiquity to contemporary philosophical perspectives, shedding light on the transformation of intellect from an individual capacity into a social and technological factor. Furthermore, the interrelationships between rationality, will, reflection, knowledge, and intellectual activity are synthesized from a philosophical standpoint. Within the framework of this topic, the new significance of intellectualism under the conditions of modern scientific-technical progress and artificial intelligence is also theoretically substantiated.

Keywords: intellectualism, intellect, cognition, rationality, knowledge, epistemology, reflection, will, moral choice, intellectual activity, social progress, scientific thought, technological intelligence, artificial intelligence, socio-philosophical analysis.

Kirish. Insoniyat tafakkuri tarixida aql, bilim, idrok va ongning inson faoliyatidagi o‘rni masalasi falsafaning eng qadimiy hamda doimiy muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Mazkur muammoning nazariy rivoji jarayonida shakllangan muhim yo‘nalishlardan biri intellektualizm hisoblanadi. Intellektualizmni faqat aqlni ulug‘lovchi yoki bilimni ustuvor deb biluvchi qarash sifatida talqin qilish uning falsafiy mazmunini toraytiradi. Chunki bu tushuncha tarixiy taraqqiyot davomida axloqiy xulqni bilim bilan bog‘lash, iroda va intellekt munosabatini aniqlash, ishonchli bilimning manbaini asoslash, insonning dunyodagi o‘rnini aqliy faoliyat orqali tushuntirish hamda ijtimoiy hayotning ratsional asoslarini belgilash kabi turli mazmunlarni qamrab olgan.

Shu nuqtai nazardan, intellektualizm – insonning bilish, tanlash, baholash va faoliyat yuritish jarayonlarida intellektual-kognitiv omilning belgilovchi yoki ustuvor mavqeini e’tirof etuvchi falsafiy tamoyillar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham “Sokratik intellektualizm” tushunchasi fazilat va nuqsonni, eng avvalo, intellekt holati bilan bog‘laydigan hamda ongli ravishda yomonlik qilish imkoniyatini muammolashtiradigan qarash sifatida izohlanadi[1]. Bu ta’rifdan ko‘rinadiki, intellektualizmning tarixiy ildizi inson xatti-harakatining sababini tashqi majburlashda emas, balki uning bilimi, tushunchasi va oqilona hukmida izlashga borib taqaladi.

Intellektualizmning falsafiy genezisini tadqiq etishda uning tayyor termin sifatida qachon paydo bo‘lganidan ko‘ra, mazkur tushuncha ifodalaydigan g‘oyaviy tamoyilning qanday shakllanganini kuzatish muhimroqdir. Chunki qadimgi yunon mutafakkirlari bugungi ma’nodagi “intellektualizm” terminidan foydalanmagan bo‘lsalar-da, borliqni mifologik tushuntirishdan ratsional tahlilga o‘tishning o‘zi intellektualizmning dastlabki falsafiy zaminini yaratgan. Hodisalarni ilohiy kuchlarning bevosita xohish-irodasiga bog‘lash o‘rniga ularning sabablarini tabiatning o‘zidan izlash, umumiy qonuniyatlarni aniqlash va tafakkur yordamida

voqelikning mohiyatiga yetishga intilish inson aqlining mustaqil bilish kuchi sifatida qaror topishiga olib kelgan.

Biroq intellektualizmning aniq falsafiy shakllanishi, avvalo, Suqrot ta’limoti bilan bog‘liq. Suqrot uchun bilim oddiy axborot yig‘indisi emas, balki insonning to‘g‘ri yashashi va to‘g‘ri tanlov qilishi uchun ichki mezon vazifasini bajaradi. Shu sababli uning axloqiy qarashlarida “fazilat - bilim” degan tamoyil alohida o‘rin egallaydi. Sokratik yondashuvning mohiyati shundaki, inson yaxshilikning asl mohiyatini chin ma’noda bilsa, ongli ravishda uning teskarisini tanlamaydi. Yomon xatti-harakat, mazkur nuqtai nazarga ko‘ra, avvalo bilmaslik, noto‘g‘ri baholash yoki yaxshilik haqidagi xato tasavvurning oqibatidir. Zamonaviy falsafiy adabiyotlarda bu qarashning “fazilat intellektualizmi” va “motivatsion intellektualizm” kabi ikki jihati farqlanadi[2].

Birinchi holatda fazilatning o‘zi muayyan bilim shakli bilan bog‘lanadi. Ikkinchi holatda esa inson harakatining asosiy sababini uning nimani o‘zi uchun yaxshi deb bilishi belgilaydi. Demak, Suqrot inson xulq-atvorini tushuntirishda ehtiros, tasodifiy istak yoki tashqi majburlashdan ko‘ra kognitiv omilni oldingi o‘ringa olib chiqadi. Aynan mana shu holat intellektualizm tarixidagi dastlabki muhim burilishdir: bilim insonning borliqni anglash vositasidan uning axloqiy o‘zligini belgilovchi kuchga aylanadi.

Bu yondashuv inson tabiatiga nisbatan optimistik falsafiy munosabatni ham ifodalaydi. Agar yomonlikning asosiy sabablaridan biri bilimsizlik bo‘lsa, unda insonni o‘zgartirishning eng samarali yo‘li zo‘ravonlik yoki majburlash emas, balki uni anglash darajasiga olib chiqishdir. Shu tariqa intellektualizm qadimgi falsafadayoq ma’rifat, tarbiya va axloq o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslovchi nazariy model sifatida shakllanadi. Bu xususiyat keyingi davrlarda insonni bilim orqali takomillashtirish mumkinligi haqidagi ko‘plab ma’rifatparvarlik konsepsiyalari uchun ham g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda falsafiy tahlil, tarixiy-falsafiy yondashuv, qiyosiy tahlil hamda tushunchaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Intellekt, tafakkur, ong va sun’iy intellekt tushunchalarining mazmuni Sharq va G‘arb falsafiy tafakkuri hamda zamonaviy ilmiy qarashlar asosida qiyoslab o‘rganildi; inson intellekti va sun’iy intellektning o‘xshash va farqli jihatlari tizimli tarzda tahlil qilindi.

Natijalar. Ayni paytda Suqrotga xos qat’iy intellektualizm keyingi antik falsafada qayta ko‘rib chiqilgan. Aflotun inson ruhining murakkab tuzilishini tahlil qilar ekan, bilish bilan bir qatorda istak va ruhiy kechinmalarning ham inson xatti-harakatidagi ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirmaydi. Uning falsafasida aql boshqaruvchi kuch bo‘lib qoladi, biroq inson ichki olami faqat aqliy qobiliyatdan iborat emasligi ayonlashadi. Arastu esa bu muammoni yanada murakkablashtirib, to‘g‘ri bilim bilan amaliy xulq o‘rtasida doimo avtomatik muvofiqlik mavjud emasligini ko‘rsatadi. Inson ba’zan nima yaxshi ekanini bilgan holda ham unga zid yo‘l tutishi mumkinligi, ya’ni akrasia - o‘zini tuta olmaslik hodisasining mavjudligi axloqiy intellektualizmning mutlaq shakliga jiddiy tuzatish kiritdi. Sokratik merosning Aflotun, Arastu va stoiklar falsafasida turlicha rivojlanganligi zamonaviy tadqiqotlarda ham alohida ko‘rsatiladi[3].

Shu jihatdan qadimgi davr intellektualizmining rivojlanishida ikki tendensiyani farqlash mumkin. Birinchisi, insonning oqilona faoliyati va axloqiy kamolotini bilim bilan chambarchas bog‘lashdir. Ikkinchisi esa sof bilimning o‘zi axloqiy xatti-harakatni to‘liq kafolatlamasligini anglashdir. Bu ziddiyat keyingi falsafa tarixida intellekt va iroda, bilim va tanlov, aql va ehtiros nisbatiga bag‘ishlangan munozaralarning nazariy poydevorini yaratdi. O‘rta asrlar falsafasida intellektualizm yangi mazmun kasb etdi. Bu davrda masala endilikda faqat “inson yaxshilikni bilsa, uni amalga oshiradimi?” shaklida emas, balki “inson erkin harakatining asosiy manbai nima - intellektmi yoki iroda?” tarzida qo‘yila boshladi. Mazkur muammoning keskinlashuvi natijasida intellektualizmga qarama-qarshi tarzda volyuntarizm tushunchasi shakllandi. Falsafa tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda intellektualizm va volyuntarizm, ayniqsa, XIII asr oxirlaridan boshlab axloqiy psixologiyada inson faoliyatining yakuniy asosini intellektga yoki irodaga berish nuqtai nazaridan farqlanganligi qayd etiladi[4].

Foma Akvinskiy falsafasi mazkur munozarada alohida o‘rin egallaydi. Uning qarashlarida inson irodasi mustaqil ahamiyatga ega bo‘lsa-da, iroda ko‘r-ko‘rona harakat qilmaydi. U intellekt tomonidan yaxshilik sifatida anglangan narsa tomon yo‘naladi. Boshqacha aytganda, inson nimanidir istashi uchun u avvalo shu narsani ma’lum darajada “yaxshi” deb anglamog‘i zarur. Shuning uchun intellekt amaliy faoliyatda yo‘nalish beruvchi, iroda esa tanlash va intilish kuchi sifatida ishtirok etadi. Zamonaviy Akvinskiyshunoslikda ham intellekt va iroda uning inson erkinligi haqidagi ta’limotining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi[5].

Muhokama. O‘rta asr intellektualizmining falsafa tarixidagi ahamiyati shundaki, u aql masalasini sof bilish nazariyasi doirasidan chiqarib, erkinlik va javobgarlik muammosi bilan bog‘ladi. Inson o‘z qilmishi uchun javobgar bo‘lishi uchun uning harakati ongli va maqsadli bo‘lishi lozim. diyat orqali nazariy jihatdan chuqurlashdi.

Yangi davrga kelib intellektualizmning markazi axloqiy psixologiyadan gnoseologiya va metodologiya tomon siljidi. Ayniqsa, Rene Dekart falsafasida aql ishonchli bilimga erishishning asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi. Dekart insonlar o‘rtasidagi farqni aqlning mavjud yoki mavjud emasligi bilan emas, balki undan qanday foydalanish bilan bog‘laydi. Uning fikricha, to‘g‘ri hukm qilish va haqiqatni xatodan ajratish qobiliyati insonning universal sifatlaridan biridir; asosiy muammo fikr yuritishning to‘g‘ri usulini topishdan iborat.[6] Bu yerda intellektualizm sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. Suqrotda bilim yaxshi hayotning sharti bo‘lgan bo‘lsa, Dekartda metodik aql ishonchli ilmiy bilimning sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Shubha ham bu yerda bilishga qarama-qarshi holat emas, balki tafakkurni xatodan tozalovchi intellektual vositaga aylanadi. Shu sababli yangi davr intellektualizmi insonning fikrlash qobiliyatini nafaqat ma’naviy kamolot, balki tabiatni ilmiy bilish va o‘zgartirish imkoniyatining ham asosiy manbai deb qaraydi.

Kant aqlning ulkan bilish imkoniyatlarini e’tirof etar ekan, uni cheksiz va xatosiz kuch deb qabul qilmaydi. Uning ta’limotida “tushunish” va “aql”ning vazifalari farqlanadi; inson tajribani tushunchalar orqali tartibga soladi, biroq sof aql tajriba chegarasidan tashqariga chiqqanda nazariy qarama-qarshiliklarga duch kelishi mumkin. Kant “aql tushunchalari”ning oddiy empirik tajriba bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi[7].

Shu asosda Kant falsafasini intellektualizmning inkori emas, balki uning tanqidiy shakli deb baholash mumkin. Chunki Kant inson aqlining markaziy rolini saqlagan holda, uning qonuniy faoliyat chegaralarini ham belgilaydi. Endilikda intellektning kuchi faqat qancha ko‘p narsani tushuntira olishi bilan emas, balki qayerda o‘z chegarasini tan olishi bilan ham belgilanadi. Mazkur yondashuv falsafiy tafakkurda muhim metodologik o‘zgarishni yuzaga keltirdi: ratsionallik o‘z-o‘zini ham tanqid qila oladigan refleksiv qobiliyat sifatida tushunila boshlandi. Gegel falsafasida esa aql alohida individning ichki xususiyati doirasidan chiqib, tarixiy va ijtimoiy jarayon bilan birlashtiriladi. Uning “Ruh fenomenologiyasi” asarida aqlga bag‘ishlangan bosqich individual ongning obyektiv voqelik bilan munosabatini yangi darajaga olib chiqadi.[8] Gegel uchun haqiqat tayyor, o‘zgarmas formula tarzida mavjud emas; u ongning tarixiy

rivoji, qarama-qarshiliklarni boshdan kechirishi va ularni yangi birlikka olib chiqishi jarayonida ochiladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida esa klassik intellektualizmning ayrim mutlaqlashtirilgan ko‘rinishlariga qarshi tanqid kuchaydi. Anri Bergson inson intellektining amaliy va ilmiy imkoniyatlarini inkor etmagan holda, u doimo o‘zgarib turuvchi hayotiy jarayonni to‘liq qamrab ola olmasligini ta’kidladi. Uning fikricha, intellekt moddiy obyektlarni ajratish, solishtirish va amaliy harakat uchun nihoyatda qulay, biroq davomiylik, ijodkorlik va uzluksiz o‘zgarishni aynan o‘sha shaklda anglashda chegaralangan. “Creative Evolution” asarida intellektning tabiati maxsus tahlil qilinib, uning moddiy olam va amaliy faoliyatga moslashgan xususiyati yoritiladi[9].

Xulosa. Demak, intellektualizm tushunchasining falsafiy genezisi inson aqlining mutlaq ustuvorligini e’lon qilishdan iborat bir chiziqli jarayon emas. Aksincha, bu genezis intellektning imkoniyati, chegarasi, iroda bilan aloqasi, axloqiy mas’uliyati va ijtimoiy shakllanishi haqidagi uzoq davom etgan nazariy munozaralar natijasidir. Ana shu tarixiy-falsafiy tajriba zamonaviy sun’iy intellekt fenomenini ham faqat texnik yutuq sifatida emas, balki insonning aqliy faoliyati, ijtimoiy maqomi va sivilizatsion istiqbolini o‘zgartiruvchi yangi falsafiy hodisa sifatida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Prior, William J. “Intellectualism.” In: Gerald A. Press (ed.). The Continuum Companion to Plato. London: Continuum International Publishing Group, 2012. - pp. 184-186.
2. Brickhouse, Thomas C.; Smith, Nicholas D. Socratic Moral Psychology. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. - pp. 1–10; 43–88.
3. Brickhouse, Thomas C.; Smith, Nicholas D. “Socrates and his ancient intellectual heirs: Plato, Aristotle, and the Stoics.” In: Socratic Moral Psychology. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. - pp. 193–247.
4. Hoffmann, Tobias. “Intellectualism and voluntarism.” In: Robert Pasnau, Christina van Dyke (eds.). The Cambridge History of Medieval Philosophy. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. - pp. 414-427.
5. Gorman, Michael. “Intellect and Will.” In: Eleonore Stump, Thomas Joseph White (eds.). The New Cambridge Companion to Aquinas. Cambridge: Cambridge University Press, 2022. - pp. 211-230.
6. Descartes, René. “Discourse on the Method.” In: John Cottingham, Robert Stoothoff, Dugald Murdoch (trans.). The Philosophical Writings of Descartes. Vol. I. Cambridge: Cambridge University Press, 1985. - pp. 111-151.
7. Kant, Immanuel. Critique of Pure Reason. Edited and translated by Paul Guyer and Allen W. Wood. Cambridge: Cambridge University Press, 1998. - pp. 394–408.
8. Hegel, Georg Wilhelm Friedrich. The Phenomenology of Spirit. Edited and translated by Terry Pinkard and Michael Baur. Cambridge: Cambridge University Press, 2018. – pp. 136–141; “Reason” bo‘limi: pp. 136–252.
9. Bergson, Henri. Creative Evolution. Translated by Arthur Mitchell. New York: Henry Holt and Company, 1911. - pp. 151–176.